

INGLIZ VA O‘ZBEK ILMYIY DISKURSIDA METADISKURSIV MARKERLAR ORQALI TIL MODELINING EPISTEMIK MAQOMLASHUV MEXANIZMLARI

Shoxidaxon Alijon qizi KURBANOVA

dotsent v.b.

filologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori

Kokand university Andijon filiali

Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

Maqolada ingliz va o‘zbek ilmiy diskursida metadiskursiv markerlar orqali til modelining epistemik maqomlashuv mexanizmlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot modelning nazariy maqomi uning ichki konseptual tuzilishidan tashqari, qanday diskursiv strategiyalar bilan taqdim etilishiga ham bog‘liqligini asoslaydi. Ingliz diskursida mualliflik markerlari va ehtimollik ko‘rsatkichlari modelni individuallashtirilgan va muhokamaga ochiq nazariy konstruktsiya sifatida verballashtiradi. O‘zbek diskursida esa umumlashtiruvchi formulalar, passiv konstruktsiyalar va qat‘iylik bildiruvchi birliklar modelni jamoaviy tasdiq asosida legiti­mlashtiradi. Natijada epistemik mas‘uliyatning individuallashtirilishi va kollektivlashtirilishi ilmiy tafakkurning turli diskursiv shakllarini yuzaga chiqarishi aniqlanadi. Tadqiqot metadiskursni ilmiy matnning periferik elementi emas, balki nazariy bilimni maqomlashtiruvchi markaziy epistemik mexanizm sifatida talqin etilgan.

Tayanch so‘zlar: metadiskursiv markerlar, til modeli, epistemik maqomlashuv, ilmiy diskurs, legiti­mlashtirish strategiyasi, mualliflik pozitsiyasi, epistemologik ochiqlik, normativlik, qiyosiy tahlil.

ЭПИСТЕМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ СВЯЗИ ЯЗЫКОВОЙ МОДЕЛИ ПОСРЕДСТВОМ МЕТАДИСКУРСИВНОГО МАРКЕРА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ НАУЧНОМ ДИСКУРСЕ

Шохидахон Алижан кизи КУРБАНОВА

и.о доцент

Доктор философии по (PhD) филологических наук

Андижанский филиал Кокандского университета

Андижан, Узбекистан

Аннотация

В статье на сравнительной основе анализируются механизмы эпистемического статуса языковой модели посредством метадискурсивных маркеров в английском и узбекском научном дискурсе. Исследование доказывает, что теоретический статус модели зависит не только от её внутренней концептуальной структуры, но и от дискурсивных стратегий её представления. В английском дискурсе маркеры авторства и индикаторы вероятности вербализуют модель как индивидуализированный и открытый для обсуждения теоретический конструкт. В узбекском дискурсе обобщающие формулы, пассивные конструкции и единицы детерминации легитимизируют модель на основе коллективного утверждения. В результате

установлено, что индивидуализация и коллективизация эпистемической ответственности порождают различные дискурсивные формы научного мышления. В исследовании метадискурс интерпретируется как центральный эпистемический механизм, определяющий статус теоретического знания, а не как периферийный элемент научного текста.

Ключевые слова: метадискурсивные маркеры, языковая модель, эпистемическое позиционирование, научный дискурс, стратегия легитимации, авторская позиция, эпистемологическая открытость, нормативность, сравнительный анализ.

Ilmiy model epistemologik jihatdan tayyor va o'z-o'zidan mavjud konstruktsiya emas. U ilmiy diskurs ichida shakllanadi va aynan diskursiv vositalar orqali maqomlashadi. Nazariyaning ilmiy kuchi uning ichki mantiqiy izchilligigina emas, balki qanday verballashuvi, qanday asoslanishi va qanday epistemik chegaralar bilan taqdim etilishiga ham bog'liq. Shu jihatdan metadiskursiv markerlar til modelining epistemik maqomini belgilovchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Metadiskurs ilmiy matnda muallifning o'z nazariyasiga, dalillariga va o'quvchiga nisbatan pozitsiyasini ifodalovchi lingvistik vositalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu markerlar orqali model ehtimollik darajasida, qat'iy tasdiq shaklida yoki jamoaviy konsensus asosida verballashadi. Shunday qilib, epistemik maqom diskursiv qurilish natijasida yuzaga keladi.

Matnda ingliz va o'zbek ilmiy diskursida til modelining epistemik maqomlashuvi metadiskursiv markerlar asosida qiyosiy tahlil qilinadi. E'tibor uch turdagi markerlarga qaratiladi: mualliflik markerlari, epistemik ko'rsatkichlar hamda normativ-legitimashtiruvchi formulalar.

Ingliz va o'zbek ilmiy diskursida til modelining epistemik maqomlashuvi lingvistik vositalarning ichki ierarxiyasi orqali amalga oshadi. Metadiskursiv markerlar bu jarayonda nazariy konstruktsiyaning ishonchlilik darajasi, argumentativ kuchi hamda pozitsionallik tipini belgilaydi [1]. Ular modelni oddiy tavsif obykti sifatida emas, balki epistemologik jihatdan validatsiyalangan birlik sifatida konstitutsiyalaydi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz diskursida epistemik maqomlashuv ko'proq modallik va evidensiallik orqali yuzaga chiqadi. Masalan: *"This framework seems to capture the interaction between semantic and pragmatic layers."* Ushbu gapdagi "to seem" fe'li epistemik masofani bildiradi. Muallif modelni qat'iy hukm sifatida emas, kuzatuv asosida shakllangan ehtimoliy konstruktsiya sifatida taqdim etadi. "To capture" fe'li esa funksional adekvatlikni anglatadi, biroq epistemik ochiqlik saqlanadi. Bunday konstruktsiyada nazariya dalillash jarayonida ekanligi seziladi [2].

Yana bir misol: *"It can be argued that the proposed taxonomy reflects gradient distinctions rather than binary oppositions."* Ushbu gapda berilgan "can be argued" passiv konstruktsiyasi argumentativ imkoniyatni bildiradi. Bu yerda muallif o'z pozitsiyasini bevosita markazga qo'ymaydi, balki nazariy qarashni muhokama qilinishi mumkin bo'lgan variant sifatida beradi. Epistemik javobgarlik individuallashtirilgan bo'lsa-da, diskursiv yumshoqlik saqlanadi. Model ochiq konstruktsiya sifatida mavjud bo'ladi.

Ingliz diskursidagi bunday markerlar epistemik elastiklikni ta'minlaydi. Nazariya qat'iy haqiqat sifatida emas, ilmiy munozara jarayonida shakllanadigan dinamik tizim sifatida ko'rsatiladi [3]. Refleksivlik va argumentativlik bu yerda epistemologik ustunlik kasb etadi.

O'zbek ilmiy diskursida esa metadiskursiv markerlar boshqa yo'nalishda ishlaydi. Epistemik maqomlashuv ko'proq normativ fe'llar va tasdiqlovchi konstruktsiyalar orqali yuzaga chiqadi. Masalan: *"Mazkur model til tizimining konseptual yaxlitligini ta'minlaydi."* Aytish mumkinki, ushbu gapda berilgan "ta'minlamoq" fe'li qat'iylikni bildiradi. Nazariya funksional samaradorlik asosida barqaror ilmiy birlik sifatida beriladi. Konstruktsiyada ehtimollik yoki shartlilik ko'rsatkichi yo'q. Bu epistemik mustahkamlik effektini yaratadi [4].

Yana bir misol: *"Natijalar asosida ushbu yondashuvning nazariy asoslanganligi aniqlanadi."* Ushbu misolda esa "aniqlanadi" passiv shaklda qo'llanadi. Muallif sub'ekti eksplisit emas. Epistemik mas'uliyat tadqiqot

jarayoniga yuklanadi. Model individual taklif sifatida emas, ilmiy jarayon mahsuli sifatida verballashadi. Bu normativ-konsensus modelini mustahkamlaydi.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, ingliz diskursida epistemik maqomlashuv uch bosqichli mexanizm orqali amalga oshadi: ehtimollik ifodasi, argumentativ asoslash va individuallashtirilgan pozitsionallik. O‘zbek diskursida esa mexanizm boshqa struktura asosida ishlaydi: umumlashtirish, passivlashtirish va qat’iy tasdiqlash.

Metadiskursiv markerlarning bu farqi modelning diskursiv ontologiyasini belgilaydi. Ingliz diskursida model epistemik maydonda harakatlanuvchi konstruktsiya sifatida mavjud. U kengaytirilishi, qayta talqin qilinishi yoki inkor etilishi mumkin bo‘lgan nazariy variantdir. O‘zbek diskursida esa model ko‘proq institutsionallashtirilgan bilim shakliga yaqinlashadi. U ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olingan va tizimli ravishda qo‘llanadigan konstruktsiya sifatida beriladi [1; 4].

Shu tariqa, metadiskursiv markerlar til modelining epistemologik maqomini shakllantiruvchi ichki mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ular nazariy konstruktsiyani dalillash, legitimlashtirish va validatsiya qilish jarayonining lingvistik indikatorlari hisoblanadi. Diskursiv vositalar orqali modelning ochiqlik darajasi yoki barqarorlik darajasi belgilanadi.

Natijada, ingliz va o‘zbek ilmiy diskursida metadiskursiv markerlar epistemik pozitsionallikning ikki xil konfiguratsiyasini yuzaga chiqaradi: reflektiv-argumentativ konfiguratsiya va normativ-validatsion konfiguratsiya. Bu tafovut ilmiy tafakkurning madaniy va institutsional strukturasi bilan uzviy bog‘liqdir [2; 3].

Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek ilmiy diskursida til modelining epistemik maqomlashuv mexanizmlarini aniqlash maqsadida qiyosiy-diskursiv yondashuv asosida amalga oshirildi [1].


Tahlil jarayoni metadiskursiv markerlarning epistemik yuklamasini aniqlashga qaratiladi. Markerlar faqat grammatik shakl sifatida emas, balki argumentativ tuzilma ichidagi funksional rolga ko‘ra baholangan [2]. Har bir fragmentda mualliflik pozitsiyasining ifodalanish darajasi, ehtimollik yoki qat’iylik

ko'rsatkichlarining mavjudligi hamda nazariyaning legitimlashtirilish usuli aniqlashtirildi. Shu asosda, modelning ochiqlik yoki barqarorlik darajasi kontekstual tahlil qilingan.

Metadiskursiv birliklar funksional tasnif asosida uch asosiy guruhga ajratildi. Mualliflik markerlari shaxsiy yoki impersonal konstruktsiyalar orqali epistemik mas'uliyatning taqsimlanishini ko'rsatadi. Epistemik markerlar modallik va evidensiallik orqali nazariyaning ehtimollik darajasini belgilaydi. Legitimlashtiruvchi birliklar esa modelni konsensus yoki dalillash asosida mustahkamlaydi [3]. Ushbu tasnif til modelining epistemik konfiguratsiyasini aniqlash imkonini berdi.

Tahlil jarayonida har bir markerning kontekstual semantikasi aniqlanib, uning diskursiv pozitsionallikni qanday shakllantirayotgani baholandi. Ingliz diskursida model ko'pincha ehtimollik bildiruvchi konstruktsiyalar, performativ fe'llar va reflektiv formulalar orqali taqdim etilishi kuzatildi. Bu birliklar nazariyani ochiq konstruktsiya sifatida ko'rsatadi va uning argumentativ asosda shakllanishini ta'minlaydi [2]. O'zbek diskursida esa passiv shakllar, tasdiqlovchi fe'llar hamda umumlashtiruvchi formulalar ustunlik qiladi. Bu vositalar modelni barqaror va institutsionallashtirgan birlik sifatida maqomlashtiradi [4].

Qiyosiy tahlil funksional ekvivalentlik tamoyiliga asoslandi. Har ikki til materialida bir xil epistemik vazifani bajaruvchi birliklar solishtirildi. Struktur o'xshashlik emas, balki diskursiv funktsiya asosiy mezon sifatida olindi. Bu yondashuv orqali metadiskursiv markerlarning nazariy validatsiya jarayonidagi o'rni aniqlashtirildi. Modelning epistemik maqomi uning ichki konseptual tuzilishidan tashqari, qanday diskursiv strategiyalar bilan mustahkamlanishiga bog'liqligi asoslandi [1; 3].



1-rasm. Metadiskurs va epistemik maqomlashuv modeli.

Tadqiqot interpretativ-semantik xarakterga ega bo'lib, statistik ko'rsatkichlardan ko'ra, funksional yuklama tahliliga ustuvorlik berildi. Har bir diskursda modelning verballashuvi,

argumentativ asoslanishi va legitimlashtirilishi chuqur kontekstual tahlil orqali baholandi. Natijada, metadiskursiv markerlar til modelining epistemik maqomlashuv mexanizmini tashkil etuvchi ichki strukturaviy indikatorlar sifatida talqin qilindi.

Mazkur metodologik yondashuv ingliz va o'zbek ilmiy diskursida epistemologik pozitsionallikning turli konfiguratsiyalarini aniqlash imkonini berdi. Diskursiv vositalarning funksional roli nazariyaning ochiq yoki normativ maqomda shakllanishini belgilovchi omil sifatida asoslandi [2; 4]. Shu tariqa, til modelining epistemik maqomi diskurs ichida konstitutsiyalanadigan va metadiskursiv strategiyalar orqali legitimlashtiriladigan dinamik konstruktsiya sifatida talqin qilindi.

Tahlil natijalari ingliz va o'zbek ilmiy diskursida metadiskursiv markerlarning epistemik maqomlashuvdagi funksional yuklamasi sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatdi [1]. Har ikki diskursda ham til modeli lingvistik konstruktsiya sifatida emas, balki diskursiv mexanizmlar orqali validatsiyalanadigan nazariy birlik sifatida shakllanadi. Biroq uning epistemik konfiguratsiyasi turlicha tuziladi.

Ingliz ilmiy diskursida modelning maqomlashuvi ko'proq ehtimollik va argumentativ refleksivlik asosida amalga oshadi. Masalan: *"This framework is likely to capture the interaction between cognitive and pragmatic constraints."* Gapidagi "Likely to capture" konstruktsiyasi nazariyaning funksional adekvatligini ehtimollik darajasida ifodalaydi. "To capture" fe'li adekvatlikni bildiradi, biroq likely komponenti epistemik elastiklikni saqlaydi. Model yakuniy va qat'iy haqiqat emas, asoslangan, lekin ochiq konstruktsiya sifatida verballashadi.

Yana bir misolda: *"The proposed model appears to challenge traditional assumptions about categorical distinctions."* Ushbu gapidagi "appears to challenge" konstruktsiyasi nazariyaning mavjud paradigmani qayta ko'rib chiqayotganini bildiradi. Bu yerda muallif pozitsiyasi ehtiyotkorlik bilan ifodalanadi. "To appear" fe'li epistemik masofani hosil qiladi va dalillash jarayonini davom etayotgan hodisa sifatida ko'rsatadi [2].

Ingliz diskursida yana bir xususiyat – performativ fe'llarning faol qo'llanishidir: *“I maintain that the data support a non-binary interpretation of gradience.”* Gapida berilgan “to maintain” fe’li muallifning epistemik pozitsiyasini mustahkamlaydi, biroq u baribir shaxsiy javobgarlik asosida quriladi. Bu konstruktsiyada nazariya argumentativ asosda legitimlashtiriladi. Model muhokama maydoniga ochiq qoladi.

Shuningdek, ingliz diskursida kontrastiv-strukturaviy markerlar ham muhim rol o'ynaydi: *“Unlike earlier accounts, this approach seeks to integrate pragmatic variability into the core model.”* Gapida berilgan “unlike earlier accounts va seeks to integrate” birliklari nazariy dialogiklikni ta'minlaydi. Model boshqa konsepsiyalar bilan muloqotda mavjud bo'ladi. Epistemologik maqom raqobatli argumentativ maydonda shakllanadi [3].

O'zbek ilmiy diskursida esa boshqa konfiguratsiya kuzatildi. Model ko'proq normativ tasdiq va institutsionallashgan formulalar orqali maqomlashadi. Masalan: *“Mazkur model til birliklari o'rtasidagi tizimli munosabatlarni to'liq aks ettiradi.”* Misolida berilgan “to'liq aks ettiradi” konstruktsiyasi epistemik qat'iylikni bildiradi. Nazariya muhokamaga ochiq variant sifatida emas, tizimli yechim sifatida verballashadi.

Yana bir misol: *“Ushbu yondashuvning nazariy izchilligi empirik materiallar asosida isbotlanadi.”* Mazkur gapda berilgan “Isbotlanadi” jumlasini modelning validatsiyasini qat'iy tarzda ifodalaydi. Passiv konstruktsiya mualliflik subektini orqa fon darajasiga tushiradi va epistemik kuchni ilmiy jarayonga yuklaydi [4].

O'zbek diskursida umumlashtiruvchi formulalar ham epistemik maqomlashuvni kuchaytiradi: *“Tadqiqot natijalari asosida mazkur konsepsiyaning samaradorligi aniqlanadi.”* Mazkur gapda berilgan “aniqlanadi” jumlasini konstruktsiyasi modelni tasdiqlangan ilmiy birlik sifatida ko'rsatadi. Bu yerda ehtimollik yoki shartlilik yo'q. Model institutsionallashgan konstruktsiya maqomiga ega bo'ladi.

Qiyosiy jihatdan, ingliz diskursida epistemik maqomlashuv uch komponent asosida shakllanadi: ehtimollik, refleksivlik va individuallashtirilgan argumentativlik. O‘zbek diskursida esa uch boshqa komponent ustunlik qiladi: umumlashtirish, passivlashtirish va qat’iy tasdiq.

Grammatik darajada ham farq kuzatildi. Ingliz matnlarida modal fe’llar, evidensial birliklar va performativ konstruktsiyalar ko‘proq qo‘llanadi. O‘zbek matnlarida esa tasdiqlovchi fe’llar, impersonal shakllar va umumiy xulosa formulalari ustunlik qiladi. Bu farq modelning epistemik ochiqlik darajasini belgilaydi.

Ingliz diskursida model dinamik epistemik maydonda mavjud bo‘ladi. U qayta ko‘rib chiqilishi, kengaytirilishi yoki inkor qilinishi mumkin bo‘lgan nazariy variant sifatida quriladi. O‘zbek diskursida esa model barqaror va tizimli ilmiy birlik sifatida maqomlashadi. U ko‘proq konsensus va tasdiqlash mexanizmi orqali legitimlashtiriladi [1; 3].

Shunday qilib, metadiskursiv markerlar til modelining epistemologik konfiguratsiyasini shakllantiruvchi asosiy indikatorlar ekanligi aniqlandi. Ingliz diskursida refleksiv-argumentativ konfiguratsiya ustun bo‘lsa, o‘zbek diskursida normativ-validatsion konfiguratsiya dominant xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Natijalar metadiskursni ilmiy matnning tashkiliy elementi emas, balki nazariy bilimni maqomlashtiruvchi ichki epistemik mexanizm sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi [2; 4].

Jadval

Metadiskursiv markerlar asosida epistemologik konfiguratsiyaning qiyosiy modeli

Tahlil mezonlari	Ingliz ilmiy diskursi	O‘zbek ilmiy diskursi	Epistemologik natija
Konfiguratsiya tipi	Refleksiv-argumentativ	Normativ-validatsion	Pozitsionallikning ikki modeli shakllanadi
Metadiskurs funksiyasi	Nazariyani muhokamaga ochadi	Nazariyani tasdiqlaydi va barqarorlashtiradi	Maqomlashuv mexanizmi turlicha
Epistemik strategiya	Ehtimollik, individuallashtirish, argumentativlik	Qat’iylik, passivlashtirish, konsensus	Ochiqlik vs institutsionallashuv
Ilmiy haqiqat talqini	Jarayoniy va muzokaraviy	Tizimli va tasdiqlangan	Diskursiv ontologiya farqlanadi
Metadiskurs roli	Epistemik elastiklikni ta’minlaydi	Epistemik barqarorlikni ta’minlaydi	Nazariy bilimning maqomlashuvi

Olingan natijalar ingliz va o‘zbek ilmiy diskursida metadiskursiv markerlarning faqat uslubiy bezak emas, balki nazariy konstruktsiyaning epistemik maqomini belgilovchi markaziy mexanizm ekanini ko‘rsatdi [1]. Til modeli o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lgan obektiv struktura sifatida emas, balki diskursiv muhitda legitimlashtiriladigan va validatsiyalanadigan konstruktsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, epistemik maqom tilning ichki tizimidan emas, balki uning diskursiv taqdimot shaklidan kelib chiqadi.

Ingliz ilmiy diskursida aniqlangan reflektiv-argumentativ konfiguratsiya modelning epistemologik ochiqligini ta‘minlaydi. Ehtimollik markerlari, performativ fe‘llar va evidensial birliklar nazariyani yakuniy haqiqat sifatida emas, balki dalillash jarayonida shakllanayotgan konstruktsiya sifatida ko‘rsatadi. Bu yondashuv ilmiy tafakkurning dinamik xarakterini mustahkamlaydi. Model muhokama maydoniga ochiq qoladi, u boshqa nazariyalar bilan dialogik munosabatda mavjud bo‘ladi va o‘z epistemik chegaralarini tan oladi [2].

Bunday konfiguratsiyada muallif epistemik javobgarlikni bevosita o‘z zimmasiga oladi. Individuallashtirilgan markerlar nazariy taklifni shaxsiy pozitsiya sifatida verballashtiradi, lekin ayni paytda uni ilmiy bahs maydoniga qo‘yadi. Bu jarayonda legitimlashtirish dalillash orqali amalga oshadi. Epistemologik maqom qat’iy deklaratsiya emas, argumentativ mustahkamlash natijasida yuzaga keladi.

O‘zbek ilmiy diskursida aniqlangan normativ-validatsion konfiguratsiya esa boshqa tipdagi epistemik strategiyani namoyon qiladi. Umumlashtiruvchi formulalar, passiv konstruktsiyalar va tasdiqlovchi fe‘llar modelni institutsionallashtirilgan bilim sifatida ko‘rsatadi [3]. Bu yerda epistemik mas’uliyat individual subektdan ko‘ra ilmiy hamjamiyat yoki tadqiqot jarayoniga yuklanadi.

Model muhokama uchun taklif qilinadigan variant emas, balki tizimli asoslangan ilmiy birlik sifatida taqdim etiladi.

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, mazkur tafovut faqat grammatik yoki stilistik darajada emas, balki ilmiy tafakkurning madaniy strukturasida ham aks etadi. Ingliz diskursida ilmiy haqiqat jarayoniy va muhokamaviy hodisa sifatida talqin

qilinadi. O‘zbek diskursida esa ilmiy haqiqat ko‘proq konsensus va normativ tasdiq asosida barqarorlashadi. Bu ikki model epistemologik pozitsionallikning turli konfiguratsiyalarini yuzaga chiqaradi [4].

Shuningdek, metadiskursiv markerlarning funktsional yuklamasi modelning ontologik maqomini ham belgilaydi. Ingliz diskursida model epistemik jihatdan elastik konstruktsiya bo‘lsa, o‘zbek diskursida u struktur yaxlit va normativ birlik sifatida shakllanadi. Bu farq ilmiy muloqotning strategik qurilishi bilan bog‘liq.

Muhokama natijasida, shunday xulosa qilish mumkinki, metadiskurs til modelining tashqi bezagi emas, balki uning epistemologik asosini shakllantiruvchi ichki mexanizmdir. Nazariyaning ochiqlik darajasi, argumentativ kuchi va legitimlik tipi aynan metadiskursiv vositalar orqali belgilanadi. Shu bois, ilmiy diskursni tahlil qilishda metadiskursni periferik emas, markaziy tahlil obyekti sifatida ko‘rish zarur.

Mazkur qiyosiy kuzatuvlar ingliz va o‘zbek ilmiy an‘analarida epistemik validatsiyaning ikki xil modelini aniqlash imkonini berdi: reflektiv-argumentativ model va normativ-konsensus modeli. Har ikki model ilmiy tafakkurning turli tarixiy va institutsional konfiguratsiyalarini aks ettiradi hamda metadiskursiv strategiyalar orqali epistemologik maqomga ega bo‘ladi [1; 3].

Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek ilmiy diskursida metadiskursiv markerlar til modelining epistemik maqomlashuv mexanizmlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatdi [1]. Tahlil natijalari modelning epistemologik maqomi uning ichki konseptual yaxlitligidan tashqari, qanday diskursiv strategiyalar bilan taqdim etilishiga bevosita bog‘liqligini asoslab berdi. Metadiskursiv vositalar nazariy konstruktsiyani nafaqat ifodalaydi, balki uni legitimlashtiradi, validatsiya qiladi va ilmiy maqomga olib chiqadi.

Ingliz ilmiy diskursida model reflektiv-argumentativ konfiguratsiya asosida shakllanadi. Ehtimollik markerlari, performativ fe‘llar va evidensial birliklar nazariyani ochiq konstruktsiya sifatida verballashtiradi. Bu yondashuv modelning epistemologik elastikligini ta‘minlaydi va uni ilmiy munozara maydoniga joylashtiradi. Nazariya argumentativ asosda mustahkamlanadi va

individuallashtirilgan epistemik javobgarlik bilan taqdim etiladi [2]. Shunday qilib, epistemologik ochiqlik va refleksivlik ingliz ilmiy an'anasining markaziy xususiyatlari sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek ilmiy diskursida esa model normativ-validatsion konfiguratsiya asosida maqomlashadi. Umumlashtiruvchi formulalar, passiv konstruktsiyalar va tasdiqlovchi fe'llar modelni institutsionallashtirgan bilim shakliga olib chiqadi [3]. Epistemik mas'uliyat individual subektdan ko'ra ilmiy jarayon yoki jamoaviy ongga yuklanadi. Nazariya muhokamaga ochiq variant sifatida emas, balki izchil va tizimli ilmiy birlik sifatida verballashadi. Bu yondashuv ilmiy tafakkurning barqarorlik va konsensusga tayangan modelini aks ettiradi.

Qiyosiy natijalar shuni ko'rsatdiki, metadiskursiv markerlar epistemik pozitsionallikning ikki xil konfiguratsiyasini yuzaga chiqaradi: refleksiv-argumentativ va normativ-konsensus modeli. Har ikki konfiguratsiya ilmiy tafakkurning turli diskursiv strategiyalarini namoyon qiladi va nazariyaning maqomlashuv jarayonini belgilaydi [1; 4].

Tadqiqot shuni asoslaydiki, metadiskursni ilmiy matnning periferik elementi sifatida emas, balki nazariy bilimni maqomlashtiruvchi markaziy epistemik mexanizm sifatida talqin qilish zarur. Til modeli diskurs ichida konstitutsiyalanadi va aynan metadiskursiv strategiyalar orqali ilmiy maqomga ega bo'ladi. Shu bois metadiskursni qiyosiy tahlil qilish ilmiy tafakkurning madaniy va institutsional konfiguratsiyalarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda metadiskursiv markerlarning kvantitativ ko'rsatkichlari, fanlararo tafovutlari hamda boshqa til diskurslari bilan qiyosiy tahlili amalga oshirilishi ilmiy epistemologiya tadqiqotlarini yanada boyitishi mumkin [2; 3].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ädel A. Metadiscourse in L1 and L2 English. Amsterdam–Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2006. – 242 p.
2. Bhatia V. K. Analysing Genre: Language Use in Professional Settings. London: Longman, 1993. – 246 p.

3. Fairclough N. *Discourse and Social Change*. Cambridge: Polity Press, 1992. – 259 p.
4. Halliday M. A. K., Hasan R. *Language, Context, and Text: Aspects of Language in a Social-Semiotic Perspective*. Oxford: Oxford University Press, 1989. – 126 p.
5. Hyland K. *Disciplinary Discourses: Social Interactions in Academic Writing*. London: Longman, 2000. – 256 p.
6. Hyland K. *Metadiscourse: Exploring Interaction in Writing*. London: Continuum, 2005. – 230 p.
7. Ivanic R. *Writing and Identity: The Discoursal Construction of Identity in Academic Writing*. Amsterdam–Philadelphia: John Benjamins, 1998. – 374 p.
8. Swales J. M. *Genre Analysis: English in Academic and Research Settings*. Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 260 p.
9. Vande Kopple W. J. *Metadiscourse and the Recall of Modality*. // *College Composition and Communication*. 1985. Vol. 36. No. 1. – P. 82–93.
10. Widdowson H. G. *Discourse Analysis*. Oxford: Oxford University Press, 2007. – 136 p.